

MILLIY REALIYALARNI IFADOLOVCHI BIRLIKLAR TARJIMASI

*Qoraboyeva Shohida*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*Normo'minova Pokiza*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada realiya tushunchasi mohiyati, uning tilshunoslikda tutgan o'рни, realiya birliklarning boshqa leksik birliklar orasidagi farqi ochib berilgan. Shuningdek, realiyalarni tasniflash masalalariga ham to'xtalib o'tilgan. Realিয়া birliklarning xalq turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniyati bilan aloqadorligi va ularning lug'at boyligini oshirishda, milliy koloritni aks ettirishda tutgan o'рни izohlangan. Realiyalarni o'rganish va ular bilan bog'liq tadqiqotlar doirasini kengaytirish muayyan tilning ichki taraqqiyot xususiyatlarini o'rganishda va madaniyatlar orasidagi farqlarni keng yoritishda o'ziga xos ahamiyat kasb etishi qayd etilgan.

Maqolada realiya birlik, realiyalarning turlicha tavsifi, realiyalarning madaniy xususiyatlarini yoritishdagi o'рни yoritilgan. Realiyalarning tarjiması va asarlarda aks etishi va atamalardan farq qilishi yoritilgan. hozirgi vaqtda realiyaning tabiati, turlari va ularni tarjima qilish usullari masalasi ochiq. Tarjimon tarjima jarayonida ma'lum bir mamlakatning lingvistik voqeliklari, ularning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari bilan to'qnash keladi. Bu har doim ma'lum bir murakkablikni keltirib chiqaradi. Realিয়া birliklar tarjimasiga doir tadqiqotlarni kengaytirish muayyan tilning ichki taraqqiyot xususiyatlarini yoritishda amaliy ahamiyat kasb etishi qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** realiya birlik, atama, madaniyatlararo munosabat, badiiy matn, tarjima, geografik realiya, etnografik, ijtimoiy-siyosiy realiyalar, leksik birliklar.

**Annotation.** The article reveals the essence of the concept of realia, its role in linguistics, the difference between realia monads and other lexical monads. The issues of classification of realies were also touched upon. The relationship of realia monads with the people's way of life, worldview and culture and their role in increasing the vocabulary and reflecting the national color is explained. It is noted that the study of realities and the expansion of the scope of research related to them are of special importance in the study of the internal development features of a particular language and in the broad illumination of the differences between cultures.

The article describes the unity of realism, different descriptions of realism, and the role of realism in highlighting the cultural characteristics of realism. The translation of realities and their reflection in works and their difference from terms are explained. Currently, the question of the nature of reality, its types and methods of their translation is open. During the translation process, the translator encounters the linguistic realities

of a certain country, their socio-cultural characteristics. This always creates a certain complexity. It is noted that the expansion of research on the translation of real units is of practical importance in elucidating the characteristics of the internal development of a particular language.

The article describes the unity of realia, different descriptions of realia, and the role of realia in highlighting the cultural characteristics of realism. The translation of realities and their reflection in works and their difference from terms are explained. Currently, the question of the nature of reality, its types and methods of their translation is open. During the translation process, the translator encounters the linguistic realities of a certain country, their socio-cultural characteristics. This always creates a certain complexity. It is noted that the expansion of research on the translation of real units is of practical importance in elucidating the characteristics of the internal development of a particular language.

**Key words:** realia, literal text, geographic realia, ethnographic, culture, lexeme, social and special realia, term.

### **Kirish.**

Tilshunoslikda an'anaviy tarzda uch xil paradigmaning mavjudligi qayd etiladi: qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, struktur tilshunoslik, antropotsentrik tilshunoslik. Ushbu paradigmalardan biri bo'lgan antropotsentrik tilshunoslik tilni shu til sohiblarining qiziqishlari, ruhiyati, ichki olami, dunyoqarashi bilan uyg'unlikda talqin qiladi. Antropotsentrik yo'nalishlardan biri lingvokulturologiyadir. Til kommunikativ, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalarni bajaradi. Tilning akkumulyativ funksiyasi madaniy munosabatlar, milliy qadriyatlarni aks ettirish xususiyati orqali ham namoyon bo'ladi. Til va madaniyatning o'zaro munosabatini o'rganadigan soha – lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biri realiyadir.

Realiya tarjimashunoslik, qiyosiy-tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnolingvistikaga oid tadqiqotlarda tillararo va madaniyatlararo farqlarni o'rganishda muhim o'rin tutadi. Realiya madaniy munosabatlar darajasini yoritishga xizmat qiladi, xalqning turmush tarziga oid tushunchalarni aks ettiradi. Realiyalar kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi davrlarida shakllangan tushunchalar bo'lib, madaniyatlar o'rtasidagi farqlar yuzaga kelgan davrlarga to'g'ri keladi. Realiyalarni boshqa yondosh tushunchalardan farqlab turuvchi asosiy belgi ularning predmet-narsa ma'nosiga ega bo'lganligidir. Realiyaning dastlabki ma'nosi madaniyatlarning o'ziga xos belgilarini aks ettiruvchi narsa-buyum haqidagi tushunchalardir. "Realiya" so'zining etimologiyasi ham lotincha "moddiy" degan tushunchaga teng keladi. Realiyalarni moddiy madaniyat belgilari sifatida baholash mumkin. Tilshunoslik va tarjimashunoslikda predmetlarni ifoda etuvchi so'z va iboralar keng ma'noda

realiyalar deb yuritiladi.

Realiyalar tavsifi O'z xususiyati va vazifalariga binoan realiyalar atamalarga va atoqli otlarga yaqin turadi. Madaniy birliklar tadqiqotchilari fikriga ko'ra, atamalar va realiyalar orasidagi chegara juda shartli va juda o'zgaruvchidir. Ammo ularni bir xil tushunchalar sifatida baholash to'g'ri emas. Realiya (lotincha) "real" - "moddiy", "haqiqiy narsalar" degan ma'noni bildirib, mavhum tushunchalardan farqli ravishda borliqda mavjud narsalarni anglatadi. Realialarni boshqa yondosh tushunchalardan farqlab turuvchi asosiy belgi ham ularning aynan predmet-narsa ma'nosiga ega bo'lganligidir. Realialarni chuqurroq tadqiq etish va ularning milliy va tarixiy koloritni aks ettirish xususiyatlarini o'rganish harakatlari XX asrning 50-yillaridan boshlangan. Bu tilshunoslar orasida o'zaro bahs-munozaralarni keltirib chiqargan. Mazkur masalaning haqiqiy mohiyati diqqat markaziga olinmaganligi sababli asosiy to'xtanga kelisholmagan. Mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida realialarga baho berish bo'yicha ikki xil qarash borligini ko'rish mumkin:

Jumladan, M. L. Vaysburd realialarga mamlakatshunoslik nuqtayi nazaridan to'xtalib, shunday ta'rif beradi: "Bu muayyan mamlakat ijtimoiy va madaniy hayoti voqealari, ijtimoiy korxonalar yoki tashkilotlarning nomlari, kundalik buyum nomlari, tarixiy shaxslar nomlari va yana boshqa ko'plab narsalar nomlaridan iborat" Realiya tushunchasini dastlab madaniyatga xos obyektlar va hodisalar sifatida

- 1) Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan yondashuv;
- 2) Mamlakatshunoslik nuqayi nazaridan yondashuv.

rus tarjimashunosligiga 1941-yili Andrey Fedorov kiritdi va ularni "realiya so'zlar" deb atashni taklif qildi. A.V.Fedorov "realiya" deganda "ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi", faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo'q bo'lgan so'zlarni tushunadi. Realialar o'zga tildagi matnlarni tushunish uchun zarur bo'lgan milliy-madaniy birliklar hisoblanadi. Boshqa mamlakatlar tarixi va muhim tarixiy voqealari, madaniyati, xalq og'zaki ijodi, siyosiy hayoti haqida yetarlicha bilimga ega bo'lmaslik til bilimlari borasida kompetensiyani yo'qotishga olib keladi. A.D. Shveytser fikriga ko'ra, realialarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular boshqa til va madaniyat tashuvchilari bilim fondidan tashqaridagi, ya'ni ular uchun begona bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. G'arb tarjima maktabi olimlaridan biri Pedersen realiyani umumiy foydalanishdagi asosiy ma'nosi tufayli juda noaniq va chalkash deya tanqid qiladi. Uning fikrlariga qaraganda, realianing asl nomlanishi ("real narsalar") ham haqiqatga ziddir. Realiya so'zlar mavhum tushunchalarni ham anglatishi mumkin. Ushbu paradoksni hal etish uchun Laponen (2009) xayoliy dunyoning o'ylab topilgan buyumlari uchun "irrealiya" (irrealia) atamasini taklif qilgan.

Misol uchun O'tkir Hoshimovning 'Dunyoning ishlari' asarida o'zbek millatiga xos bo'lgan realiya so'zlar bor. Ular;

**Yaktak**<sup>1</sup> — yozgi, yengil kiyim; erkaklar ko‘ylagi. Oldi ochiq, uzun, yengli hamda tik yoqali. Yaktak to‘g‘ri bichimli, kalta (uzunligi asosan tizzagacha) va yalang qavat bo‘lishi bilan yao‘idan farq qiladi; asosan oq (bo‘z) surp, shuningdek yo‘l-yo‘l matolardan tikiladi. Ya. orqa-oldi yelkadan oshirib tashlangan yaxlit matodan tashkil topgan, uning ikki yoniga yonlar, yenglar tana qismiga to‘g‘ri ulanib, yeng va yonlar orasiga qulpak solingan. Uzun, ensiz bir necha qavat tasmasimon bo‘lakdan iborat bo‘lgan hamda uzunasiga bir necha qator choklar solib qotirilgan yoqa yoqa o‘yig‘iga ulangan. Orqa tomoni tik, oldi ko‘krakkacha tekis tushib turadi. Yaktak bag‘rini birlashtirish uchun yoqaning pastki qismiga bog‘ichlar tikiladi yoki izma qilib tugma qadaladi. Hozirda Toshkent, Farg‘ona vodiysi va boshqalarda to‘g‘ri bichimli Ya. bilan birga yangi bichiqda tikiladiganlari ham keng tarqalgan. XII-XIII-asrlardan yozma manbalarda Yaktak haqida ma‘lumotlar bor, V-VI-asrlarga oid devoriy rasmlar hamda miniatyuralarda Yaktak tasviri uchraydi.

**Sandal**,<sup>2</sup> tancha — mahalliy isitish vositasi. Qadimdan O‘rta Osiyoda, Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Yaponiya va boshqa Sharq mamlakatlarida ishlatilib kelingan. Shuning uchun xonaning bir chetiga chuqurcha kazilib, ichi maxsus shaklda ishlanib, suvaladi. Unga kursi (xontaxta) o‘rnatilib, usti ko‘rpa bilan yopiladi. Ko‘mir yoki saksovul cho‘g‘i bilan isitiladi. Zamonaviy isitish vositalari tufayli Sandalga ehtiyoj qolmayapti.

**Obkash**-<sup>3</sup> Bu ot tojik tilida 'suv' ma‘nosini anglatadigan ob otiga 'tashi-' ma‘nosini anglatadigan kashidan fe‘lining kash hozirgi zamon asosini qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, 'ikki uchidagi ilmoqqa chelak osib, yelkaga ko‘yib suv (suyuqlik) tashiydigan. yog‘ochdan yasalgan asbob' ma‘nosini anglatadi . Bu ot o‘zbek so‘zlashuv tilida apkash tarzida ham aytiladi.

**Yaxmalak**<sup>4</sup>, konki va chanada uchish uchun mo‘ljallangan usti tekis muz maydon. Sport yaxmalagi va ommaviy uchish yaxmalagi mavjud. Sport yaxmalagida konkida yugurish va chana sporti, konkida figurali uchish, xokkey bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari va musobaqalari o‘tkaziladi.

**Kalish**,<sup>5</sup> Nam o‘tkazmay-digan, odatda mahsi, botinka kabi poyab-zallar ustidan kiyiladigan, rezinadan ishlangan oyoq kiyimi.

**Chòpchak**<sup>6</sup>, Xalq og‘zaki ijodida: hikoya, ertak, ushuk. Topishmoq, jumboq. Cho‘p-chak topar o‘ynamoq. Topishmoq, jumboq. Cho‘p-chak topar o‘ynamoq.

**Juba, Jurabi**-<sup>7</sup> qalin ipdan to‘qilgan paypoq.

**Kashandoz**<sup>8</sup>-"Kashandoz" so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, "kashan" (gulli mato)

<sup>1</sup> O‘tkir Hoshimov ‘Dunyoning ishlari’. Toshkent. Sharq, 2005. p.7

<sup>2</sup> O‘tkir Hoshimov ‘Dunyoning ishlari’. Toshkent. Sharq, 2005. p.12

<sup>3</sup> O‘tkir Hoshimov ‘Dunyoning ishlari’. Toshkent. Sharq, 2005. p.12

<sup>4</sup> O‘tkir Hoshimov ‘Dunyoning ishlari’. Toshkent. Sharq, 2005. p.16

<sup>5</sup> O‘tkir Hoshimov ‘Dunyoning ishlari’. Toshkent. Sharq, 2005. p.18

<sup>6</sup> O‘tkir Hoshimov ‘Dunyoning ishlari’. Toshkent. Sharq, 2005. p.9

<sup>7</sup> O‘tkir Hoshimov ‘Dunyoning ishlari’. Toshkent. Sharq, 2005. p.16

<sup>8</sup> O‘tkir Hoshimov ‘Dunyoning ishlari’. Toshkent. Sharq, 2005. p.18

va "doz" (ishlov beruvchi yoki tikuvchi) so'zlaridan tashkil topgan. U "gulli mato tikuvchi" yoki "gulli matolarga ish beruvchi", ya'ni kashta tikuvchi ma'nosini anglatadi.

**Tog'ora**<sup>9</sup>- oshxona jihozi bo'lib, idish ya'ni narsa ovqat solish mumkin.

**Palatka**<sup>10</sup>-Suv o'tmaydigan pishiq matodan, teridan tikilgan yozgi kapa, chodir.

**Chakka**<sup>11</sup>-yomg'ir va qordan keyin tomdan tomadigan tomchi suv.

**Sarpoychon**<sup>12</sup>-Yalang oyoq; oyoqqa paypoq kiymay yoki paytava o'ramay poyabzalni o'zini kiygan holda.

**Tancha**<sup>13</sup>- uyga kirish joyida oyoq kiyim yechiladigan joy.

**Soqqa**<sup>14</sup> pul,

**Supa**<sup>15</sup>-O'rta Osiyo monumental me'morligida binolar bilan o'ralgan hovli o'rtasiga yoki chetiga (bino devoriga tutashtirib) ishlangan sahn. Hovli yuzasidan baland, usti ochiq yoki yopiq (ayvonga o'xshash) bo'ladi.

**Yontoqzor**<sup>16</sup>-Yantoq o'sgan, yantoq bilan qoplangan yer.

**Teplita**<sup>17</sup>-Issiqxona, noqulay iqlim sharoitida ekinlarga sun'iy muhit (harorat, yorug'lik, namlik va boshqalar) yaratadigan inshoot. Asosan, mavsumdan tashqari davrlarda mahsulot yetishtirish, issiqxona va ochiq dala uchun ko'chatlar o'stirishga xizmat qiladi. Issiqxona oynaband yoki polimer plyonka, stekloplast va hokazolar bilan o'ralgan bo'ladi. Yog'och yoki temir, po'lat, alyuminiy kabi metall uskunalardan tiklanadi.

**Yakkash**<sup>18</sup>-Nuqul, hamisha; doim.

**Xotinoshi**<sup>19</sup>-to'yda xotinlarni maxsus chaqirib o'tkaziladigan marosim va unda beriladigan osh.

**Omoch**<sup>20</sup>-asbob. Qadimda hali traktor va plug bo'lmagan davrlarda asosiy yer haydash quroli hisoblangan.

**Shakarangur**<sup>21</sup>- "Shakarangur" so'zi o'zbek tilida "shakar" (shirinlik) va "angur" (yeyuvchi yoki sevuvchi) so'zlaridan kelib chiqqan. U "shirinlikni yaxshi ko'ruvchi", "shakarni sevuvchi" yoki "shirinlikka o'ch" odamni anglatadi.

**Shibulg'oni**<sup>22</sup>- "Shibilg'oni" so'zi o'zbek tilida yer yoki narsalarning yuzasidan bir narsani tez harakat bilan olib tashlash yoki o'rab tushirishni anglatadi. Bu ko'pincha

<sup>9</sup> O'tkir Hoshimov 'Dunyoning ishlari'. Toshkent. Sharq, 2005. p. 11

<sup>10</sup> O'tkir Hoshimov 'Dunyoning ishlari'. Toshkent. Sharq, 2005. p. 12

<sup>11</sup> O'tkir Hoshimov 'Dunyoning ishlari'. Toshkent. Sharq, 2005. p. 14

<sup>12</sup> O'tkir Hoshimov 'Dunyoning ishlari'. Toshkent. Sharq, 2005. p. 18

<sup>13</sup> O'tkir Hoshimov 'Dunyoning ishlari'. Toshkent. Sharq, 2005. p. 13

<sup>14</sup> O'tkir Hoshimov 'Dunyoning ishlari'. Toshkent. Sharq, 2005. p. 19

<sup>15</sup> O'tkir Hoshimov 'Dunyoning ishlari'. Toshkent. Sharq, 2005. p. 5

<sup>16</sup> O'tkir Hoshimov 'Dunyoning ishlari'. Toshkent. Sharq, 2005. p. 24

<sup>17</sup> O'tkir Hoshimov 'Dunyoning ishlari'. Toshkent. Sharq, 2005. p. 24

<sup>18</sup> O'tkir Hoshimov 'Dunyoning ishlari'. Toshkent. Sharq, 2005. p. 30

<sup>19</sup> O'tkir Hoshimov 'Dunyoning ishlari'. Toshkent. Sharq, 2005. p. 32

<sup>20</sup> O'tkir Hoshimov 'Dunyoning ishlari'. Toshkent. Sharq, 2005. p. 11

<sup>21</sup> O'tkir Hoshimov 'Dunyoning ishlari'. Toshkent. Sharq, 2005. p. 51

<sup>22</sup> O'tkir Hoshimov 'Dunyoning ishlari'. Toshkent. Sharq, 2005. p. 51

o‘simlik yoki mevalarni yig‘ishda qo‘llaniladi, masalan, "g‘o‘zadan paxta shibilg‘onida terildi".

**Delvagay**<sup>23</sup>- "Delvagay" so‘zi o‘zbek tilida tog‘lik, baland va tik joylarni yoki baland qiyaliklarni anglatadi. Bu atama odatda geografik hududlarni tasvirlashda qo‘llaniladi, masalan, baland va qoyali joylar haqida gapirganda ishlatiladi. Ba’zida kiyimlarga nisbatan ham ishlatiladi.

**Qiyiqcha**<sup>24</sup> Belbog' (chorsi, qiyiq, qiyiqcha, belqars) – belga bog'lanadigan to'rtburchak shakldagi mato, milliy kiyimning tarkibiy qismi.

**Nosqovoq**<sup>25</sup> nosdon, noskadi — nos solinadigan idish. Og‘zi tiqin bilan berkitiladigan bo‘g‘zi tor, quyi qismi keng shaklda bo‘ladi.

**Xulosa:** Realialarni o‘rganish va tahlil qilish til o‘rganish jarayonida alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. Negaki, ma’lum bir til amalda bo‘lgan davlatda uning madaniyatini ham o‘rganish, xalq hayotiga chuqurroq kirib borish til o‘rganish jarayonini sifatli bo‘lishini ta’minlaydi. Aynan realiyalar tilning lug‘at boyligi, uning frazeologik qatlami, lingvomadaniy birliklarning mazmun-mohiyatini yoritishda muhim birliklar hisoblanadi. Shu òrinda biz O‘tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridan bir nechta realialarni topib tahlil qilishga harakat qildik. Mana shulardan kelib chiqqan holda, realialarni muayyan xalqning milliy, madaniy, ijtimoiy hayotini, turmush tarzini, boy urf-odat va an‘analarini o‘zida yorqin aks ettiruvchi va shu xususiyatlari bilan boshqa xalqlar milliy madaniyatida takrorlanmaydigan, o‘ziga xos birliklar deb aytamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:**

1. Florin, S. (1993). *Realia in Translation*. *Translation Studies Journal*, 35(4), 123-137.
2. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. Prentice Hall.
3. Robinson, D. (2003). *Becoming a Translator: An Introduction to the Theory and Practice of Translation*. Routledge.
4. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. John Benjamins Publishing.
5. Baker, M. (1992). In *Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
6. Harvey, M. (2000). *A Beginner's Guide to Realia in Translation*. *Translation and Terminology*, 10(3), 98-115.

<sup>23</sup> O‘tkir Hoshimov ‘Dunyoning ishlari’. Toshkent. Sharq, 2005. p.56

<sup>24</sup> O‘tkir Hoshimov ‘Dunyoning ishlari’. Toshkent. Sharq, 2005. p.57

<sup>25</sup> O‘tkir Hoshimov ‘Dunyoning ishlari’. Toshkent. Sharq, 2005. p.58